

INCREASING THE EFFECTIVENESS OF PROVIDING THE RIGHTS AND FREEDOMS OF MINOR CHILDREN AND PREVENTING OFFENSES

VOYAGA YETMAGAN BOLALARINI HUQUQ VA ERKINLIKARINI TA'MINLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH HAMDA HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH

Raximov Nodirbek Mutallievich

Namangan vilyati yuridik texnikomi

O'qituvchisi

Akramov Ibrohimjon Ohunjon o'g'li

Namangan vilyati yuridik texnikomi,

O'qituvchisi

Abstract: The article describes the work of the United Nations to increase the effectiveness of the protection of the rights and freedoms of minors and the prevention and legal protection of juveniles, as well as the state youth policy.

Keywords: Convention, minors, human rights, children's rights, rules, our national legislation, state protection, incompetence

Annotatsiya: Maqlada voyaga yetmagan bolalarni huquq va erkinliklarini ta'minlash samaradorlagini oshirish hamda huquqbuzarlikni oldini olish va ularni huquqiy himoya qilish hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlarmi Birlashgan millatlar tashkiloti tomonidan o'rghanishi va yoshlarga oid davlat siyosati yoritilgan.

Kalitli so'zlar: Konvensiya, voyaga yetmaganlar, inson huquqlar, bola huquqlari, qoidalar, milliy qonunchiligidan, davlat himoyasi, layoqatsiz

Mamlakatimizda voyaga yetmaganlar huquq-erkinliklarini ta'minlash, ularning qonuniy manfaatlarini muhofaza etish, eng asosiysi, barkamol avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Voyaga yetmaganlar manfaatlarini himoya qilish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgani samarali ijtimoiy himoya tizimini joriy etish hamda yoshlarni moddiy-ma'naviy qo'llab-quvvatlashda muhim omil bo'lmoqda. Ayni paytda mamlakatimiz aholisining 40 foizini voyaga yetmaganlar tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkichning o'ziyoq masala nechog'li dolzarb ahamiyatga ega ekanidan darak beradi. Bu jarayonda ota-onas, mahalla-ko'y, ta'lim muassasalari, umuman, keng jamoatchilik zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklanadi.

Huquqbuzarlik va jinoyatchilikka qarshi kurashish barcha davrlarda ham davlatning jiddiy va muhim masalasi hisoblanib kelingan. Inson tinch va xotirjam yashashni hohlaydi. Tinchlik bo'lgan joyda baraka va rivojlanish bo'ladi. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida O'zbekistonning jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi maqsadlari aniq va ravshan bayon etildi.

Hammamizning oldimizda turgan muhim masala bu yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatchilikning oldini olish. Chunki, yoshlar bizning kelajagimiz. Shundan kelib chiqqan holda, O'zbekiston yoshlar o'rtasida turli xil illatlarni oldini olish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash maqsadida salmoqli ishlarni amalga oshirilmoqda. Xususan, mustaqillik qo'lga kiritilganidan 3 oy o'tmasdan, ya'ni 1991 yil 20 noyabrda "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. 2016 yilga kelib "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Bundan tashqari, "Bola huquqlarining

kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi, “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilindi, qator xalqaro hujjatlar ratifikatsiya qilindi.

Parlamentning yoshlar bilan ishslash borasidagi faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida, yaqinda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Qonunchilik palatasining Yoshlar masalalari bo‘yicha komissiyasi tuzildi va o‘zining faoliyatini boshladi. Yoshlarning, ayniqsa uyushmagan, ish bilan band bo‘lmagan, tayin bir mashg‘ulotga ega bo‘lmagan yoshlarning kasb-hunarlarini puxta egallashi uchun munosib sharoitlar yaratishga, bandligini ta‘minlashga, ishbilarmonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etishga ko‘maklashish, yoshlar o‘rtasida huquqbazarlik va jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha samarali mexanizmlarni joriy etish bo‘yicha takliflar kiritish ushbu komissiyaning asosiy vazifalaridan biri qilib belgilandi.

Mamlakatimizda voyaga yetmagan bolalarning huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda qonuniy manfaatlarini ta‘minlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan masalalardan biri xisoblanadi.

Darxaqiqat, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 45-moddasida “Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg‘iz keksalarning huquqlari davlat himoyasida” ekanligi hamda 64-moddasida “Ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburiyligi” mustahkamlab qo‘yilgan.

O‘zbekiston MDH davlatlari orasida birinchilardan bo‘lib 1992 yili «Bola huquqlari to‘g‘risida»gi Konvensiyani ratifikatsiya qildi. Milliy qonunchiligmizni konvensiya qoidalariga qo’llashni tadbiq qilish asnosida 2008 yil 7 yanvarda «Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonun qabul qilindi.

Ayniqsa, so‘ngi yillarda mamlakatimizda voyaga yetmaganlarning huquq va erkinliklarini ta‘minlash bilan bog‘liq amalga oshirilgan ishlarni natijasi halqaro hamjamiyat tomonidan ham yaxshi baholanmoqda.

Xususan, Xalqaro Mehnat tashkilotining O‘zbekiston Respublikasida olib brogan monitoring natijasida hamda dunyo hamjamiyati vakillari bolalar mehnati va majburiy mehnatni to’xtatib berish bo‘yicha O‘zbekistonda ijobiy ishlar amalga oshirilganiga e’tirof etdi. 2019 yilning 1 aprelida Bryussel shahrida e’lon qilingan Xalqaro mehnat tashkilotining hisobotida Jahon banki O‘zbekiston paxta sanoatida bolalar va majburiy mehnatdan tizimli foydalanishga oldini olganini e’lon qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining 75-sessiyasida o‘zbek tilida nutq so‘zlab unda inson huquqlari sohasidagi holat ham butunlay o‘zgarganligi hamda majburiy va bolalar mehnati to‘liq tugatilganligi ma’lum qilindi.

BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi talablariga rioya etilishini ta‘minlash maqsadida 2019 yilning 22 aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bola huquqlari kafolatlарини янада кучайтишга oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 4296-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qaror yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) o‘rnbosari - Bola huquqlari bo‘yicha vakil lavozimi tashkil etildi va Kotibiyat tuzilmasida bola huquqlarini ta‘minlash faoliyatiga ko‘maklashuvchi yangi bo‘linma tuzildi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda voyaga yetmaganlarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda Bola huquqlari bo‘yicha vakili o‘zining hissasini qo‘shib kelmoqda. Joriy yilning davomida Bola huquqlari bo‘yicha vakil tomonidan bola huquqlarini ta‘minlash yuzasidan Qashqadaryo, Toshkent, Andijon, Jizzax, Sirdaryo, Farg‘ona, Namangan viloyatlari va Toshkent shahrida joylashgan muassasalarida 40 dan ortiq tekshirishlar o‘tkazilishi rejalashtirilgan hamda boshqichma bosqich amalga oshirib kelinmoqda.

Tekshirishlar doirasida ushbu muassasalardagi voyaga yetmaganlar bilan uchrashuvlar o‘tkazildi. Uchrashuv jarayonida tashkilotlarga joylashtirish sabablari, u yerdagi sharoitlar va ular bilan muomalada bo‘lish, tibbiy xizmat ko‘rsatish, ovqatlantirish, mehnat, tarbiyaviy va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish samaradorligi o‘rganildi.

Monitoring natijalari tahlili ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalarida voyaga yetmaganlar huquqlari va erkinliklarini himoya qilish samaradorligiga ta’sir ko‘rsatadigan bir qator masalalarni aniqlash imkonini berdi. Jumladan:

- voyaga yetmaganlarni ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalariga joylashtirishda oiladagi ijtimoiy muhitning yomonligi, ota-onalik ota-onalik o‘rnini bosuvchi shaxslarning farzand tarbiyasiga be‘etibor bo‘lishi sabab bo‘layotganligi;

Vaholanki, BMTning voyaga yetmaganlar orasida jinoyatning oldini olish uchun boshqaruv prinsiplarining (Ar-Riyod boshqaruv prinsiplari) 12-bandida oila bolalarni jamiyatdagi hayotga tayyorlash uchun mas’ul bo‘lgan asosiy birlik bo‘lgani uchun, hukumat va jamoat institutlari oilaning, butunligini saqlashga harakat qilishlari kerakligi, jamiyat oilalarga bolalarni parvarish qilish va himoya qilish, ularning jismoniy va ruhiy salomatligini yaxshilashda yordam berishga majburligi, bolalar uchun kunduzgi parvarishlashni o‘z ichiga olgan holda, yetarli darajada choralar ko‘rish kerakligi ta’kidlangan.

- voyaga yetmagan tomonidan huquqbazarlik sodir etilmagan bo‘lsada, uning yaqin qarindoshlarining murojaatiga asosan maxsus turdagи o‘quv muassasasiga voyaga yetguniga qadar joylashtirilayotganligi;

Ar-Riyod boshqaruv prinsiplarining 46-bandida voyaga yetmaganlarni ta’lim va axloq tuzatish muassasalariga joylashtirish eng so‘nggi chora sifatida va eng kam zarur muddat davomida, ularning eng ustun manfaatlari bo‘yicha belgilanishi lozimligi ta’kidlangan.

- voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markaziga joylashtirish to‘g‘risida materiallarni tayyorlash hamda sudlar tomonidan ko‘rib chiqilishida ba’zi hollarda qonunda belgilangan talablarga amal qilinmaganligi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunning 26-moddasida “O‘ziga nisbatan ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markaziga joylashtirish to‘g‘risidagi iltimosnomasi ko‘rib chiqilayotganda voyaga yetmagan, prokuror, vasiylik va homiylik organining, ichki ishlar organining vakillari sud majlisida ishtiroy etishi shart” ekanligi belgilangan bo‘lsada ba’zi hollarda sud ishida voyaga yetmagan yoki mas’ul idora xodimlarining ishtiroy etmaganligi;

Bola huquqlari bo‘yicha Vakil tomonidan olib borilgan monitoring natijalarini umumlashtirish hamda kelib tushgan murojaatlarning tahlili voyaga yetmaganlarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan normativ huquqiy hujjatlarni yana-da takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish imkonini berdi:

- mehr-shafqat va insonparvarlik tamoyillariga asoslanib sodir etgan qilmishining ahamiyatini to‘la ravishda anglab yetgan voyaga yetmaganlarni ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazidan muddatidan oldin ozod etish talablarini belgilash;

- voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiyalar tarkibiga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha Vakili (Ombudsman) o‘rinbosari – Bola huquqlari bo‘yicha Vakil va uning joylardagi mintaqaviy vakillarini ham kiritib o‘tish maqsadga muvofiq.

Xozirgi kunda barcha soha vakillari ham ushbu davlat siyosatiga aylangan voyaga yetmaganlarni ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish hamda xuquqbazarlikni oldini olish ishlarini amalga oshirish uchun bel bo‘g‘lab harakat qilmoqda xususan, prokuratura organlari jinoyatni oldini olish uchun har bir tumanda targ‘ibot ishlarini amalga oshirmoqda, bundan tashqari ichki ishlar organlarida huquqbazarlikni oldiniolsh uchun ham juda katta ishlar amalga oshirilmoqda.

Foydalilanigan Adabiyotlar Ro‘yhati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 45-64 moddalari
2. 2019 yilning 22 aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 4296-sonli qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillar rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi.
4. Камолов, А. А., & Холмирзаев, У. А. (2016). Малый бизнес и частное предпринимательство в Узбекистане. Вопросы экономики и управления, (5), 182-184.
5. Kamolov Abdurahmon, & Kholmirzaev Ulugbek Abdulazizovich. (2021). SOME ISSUES OF IMPROVING SECURITIES ACCOUNTING. *Conference Zone*, 129–132. Retrieved from
6. Xolmirzaev, U. A. (2020). FINANCIAL ASSETS AND IMPROVEMENTS OF THEIR ANALYSIS. Экономика и социум, (1), 102-105.
7. Xolmirzaev, U. A., & Juraev, E. S. (2020). PROBLEMS OF IMPROVEMENT OF DEBITOR DEBT DEBT ANALYSIS. Мировая наука, (1), 100-105.

8. Juraev, E. S., & Xolmirzayev, U. A. (2020). SUPPORTING SMALL BUSINESS SUBJECTS BY TAX REFORMS. Экономика и социум, (1), 48-52.
9. Hakimov, B., Yunusov, M., & Holmirzayev, U. (2019). ELABORATION OF THE BALANCE SHEET LIQUIDITY ANALYSIS-REQUIREMENTS OF THE PERIOD. International Finance and Accounting, 2018(1), 100.
10. Kamolov, A. A., & Xolmirzayev, U. A. (2018). ECONOMIC LAWS AND CATEGORIES. Экономика и социум, (2), 34-36.
11. Убайдуллаев, Т., & Холмирзаев, У. (2019). ФАКТОРЫ И ТЕНДЕНЦИИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА. Мировая наука, (1), 299-302.
12. Ўқитувчи, Х. У. А. . (2021). ҚИСҚА МУДДАТЛИ ҚИММАТЛИ ҚОФОЗЛАРНИ АНАЛИТИК ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. "ONLINE - CONFERENCES" PLATFORM, 396-399.
13. Ibrogimov Sherzodbek Halimjon oglı, "DIGITAL ECONOMY AND FACTORS OF ITS DEVELOPMENT IN THE CONDITIONS OF PANDEMIC IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN", IEJRD - International Multidisciplinary Journal, vol. 6, no. 5, p. 5, Nov. 2021.
14. Ibrogimov Sherzodbek Halimjon Ogli, Obbasov Ilyosbek Abdulhamid Oglu."Peculiarities of the Development of Industrial Production in Namangan Region", Volume 9, Issue XI, International Journal for Research in Applied Science and Engineering Technology (IJRASET) Page No: 544-547, ISSN : 2321-9653
15. Ubaydullaev Toxirjon Abdullajanovich, & Ibrogimov Sherzodbek Halimjon oglı. (2021). ОПРЕДЕЛЕНЫ ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ДИВЕРСИФИКАЦИИ ЭКСПОРТА ПРОМЫШЛЕННОЙ ПРОДУКЦИИ НА ОСНОВЕ ЛОКАЛИЗАЦИИ. Международный междисциплинарный исследовательский журнал Galaxy, 9(12),70-75.
16. Yuldashev Askarali Yakubovich, Juraev Elyorbek Sobirjon o'g'li, & Ibrogimov Sherzodbek Halimjon oglı. (2021). TAX POLICY AND WAYS TO IMPROVE IT. Conference Zone, 167–170.
17. Juraev, E. S. (2017). World experience in small business lending.
18. Juraev, E. S. (2018). Foreign experience in conducting financial policies for the development of small business. Russia, Экономика и социум.
19. Жураев, Э. С. (2017). Мировой опыт по кредитованию малого бизнеса. Высшая школа, (11), 14.
20. Juraev, E. S. (2017). World experience in small business lending.–Russia. Высшая школа.
21. Juraev, E. S. (2020). INFLATION RISK. Мировая наука, (1), 29-33.
22. Жураев, Э. С. (2018). ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ПО ВЕДЕНИЮ ФИНАНСОВОЙ ПОЛИТИКИ ДЛЯ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА. Экономика и социум, (11), 357-362.